Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....	664
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	669
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....	673
<i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>	
Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida .....	678
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>	
Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar .....	681
<i>I. B. Bobomuratov</i>	
The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education .....	685
<i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>	
Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....	689
<i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	692
<i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari .....	695
<i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..	699
<i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>	
Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati .....	702
<i>N. T. Tojiboyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari .....	707
<i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>	
Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	710
<i>Olimov Temir Xasanovich</i>	
Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues .....	715
<i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>	
O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...	720
<i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....	724
<i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar .....	728
<i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari .....	733
<i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	737
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении .....	742
<i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>	

Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....	745
<b>Д. Б. Бабаева</b>	
Методика и подходы обучения речи в школьной практике .....	750
<b>Шарипов Одилжлон Гуломжон угли</b>	
Iqtidorli talabalarni aniqlash va rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar .....	754
<b>Abdiyeva E'zoza Beknazar qizi</b>	
Innovatsion menejment tizimida malakali kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlari .....	759
<b>Hikmatova Niginabonu Siddiq qizi</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni anonim baholash tizimining ishonchligi va pedagogik samaradorligini baholash.....	764
<b>Maksudova Aziza Ikramdjanovna, Akramxo'jayev Yo'ldoshxo'ja Tursunxo'jayevich, Avezov Toshtemir Abdualiyevich, Abdullayeva Maftuna Shonazarovna</b>	
Raqamli ta'lim muhitida mexanikani o'qitishning pedagogik muammolari.....	771
<b>Choriyev Islom G'ayratovich</b>	
Musiqqa mashg'ulotlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	775
<b>Siddiqova Gulnoza Sharaviddinovna, Bahora Akbarova</b>	
Moychechak yetishtirishda mineral va organik o'g'itlarning ta'siri .....	778
<b>Jabbarova Nigina Zoxidjon qizi</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida bo'lg'usi matematika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish .....	783
<b>Esonov Munavvarjon Mukimjonovich, Xabibullayev Islomjon Soyibjon o'g'li</b>	
Специфика формирования математического мышления студентов вузов посредством модуля "векторы" .....	786
<b>Эсонов Мунавваржон Муқимжонович, Салихов Амир Тимурович</b>	
Autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlarining nazariy-metodologik asoslari..	790
<b>Rayimova Gulchehra Utkur qizi</b>	
Особенности использования инструментов управления проектами: отраслевой подход.....	794
<b>Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etishda qiyinchiliklar va samarali strategiyalar.....	800
<b>Abdalimova Iroda Ummatqul qizi</b>	
Manzara janrining tasviriy san'atdagi o'rni: ekologik-estetik mazmuni va ta'limiy imkoniyatlari .....	805
<b>Abdumajidova O'g'loy Ravshanjon qizi</b>	
E-Assessment vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va funksional imkoniyatlari.....	809
<b>Abdumannopov Murodjon Ilxomjon o'g'li</b>	
Masofaviy ta'lim jarayonida talabalar faolligini oshirishning interfaol metodlari.....	813
<b>Abduvaxobov Shohruhbek Ikromjon o'g'li</b>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashdagi muammolar .....	816
<b>Davlatova Firuza Kamolovna</b>	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim va zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish .....	820
<b>Hayitov Abdurasul Eshdaviatovich, Xolboyeva Nigina Uchqunovna, Ravshanov Asliddin Ulug'bek o'g'li</b>	
Sport gimnastikasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik va amaliy jihatlari.....	826
<b>Karimov Doniyor Komil o'g'li</b>	
Neyropsixologiya va neyropedagogikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi .....	830
<b>N. O. Saidova</b>	
Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishining nazariy asoslari.....	833
<b>Nosirova Shoxsanam Negmat qizi</b>	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar .....	837
<b>Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna</b>	
O'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishda tasviriy san'at va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.....	841
<b>Tulaganov Jahongir Abdimurot o'g'li</b>	



Vizual ta'lim texnologiyalari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini diagrammaviy masalalar yordamida rivojlantirish .....	845
<i>Usmonova Shahlo Saidjon qizi</i>	
Biologiya darslarida o'quvchilarning ilmiy xabardorlik kompetensiyasini shakllantirishda mashq va masalalardan foydalanish metodikasi .....	849
<i>Yakubova Fotima Xamza qizi</i>	
Система духовных ценностей в современной русской прозе (а. волос "сирийские розы") .....	853
<i>Ольга Чангировна Хегай</i>	
Alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari va ularning pedagogik-psixologik tasnifi .....	856
<i>Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi</i>	
Rang nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklar va paremiyalarda milliy-madaniy xususiyatlar .....	858
<i>Azizova Zarina Alixanovna</i>	
Kvest o'yinlari orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida .....	861
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Davronova Ra'no Komilovna</i>	
Dizayn o'ylash jarayonini bolalar bilan mashg'ulotda qo'llashning metodik yondashuvlari .....	865
<i>Hasanova Sevinchoy Ramazon qizi</i>	
Umumta'lim maktablari fizika ta'limida mexanika bo'limini izchillik yondashuvi asosida o'qitish zaruriyatining ilmiy asoslari .....	869
<i>Yusupov Dilmurud Abdurashidovich, Azimova Shahnoza Akramjon qizi</i>	
STEAM va ijodiy metodlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarni tayyorlash: triz, montessori va mnemotexnikani integratsiyalash .....	873
<i>Abdumajitova Sayyohat Abduqosimovna</i>	
O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish metodikasini tadqiq etish modeli .....	877
<i>Usmanova Sabohat Erkinovna</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning pedagogik mohiyati .....	880
<i>Abdunazarova Zebiniso Xudoyshukurovna</i>	
Shaxs psixik rivojlanishida sog'lom turmush tarzi va atrof-muhit ta'sirining ahamiyati .....	884
<i>B. Raximov</i>	
Boshlang'ich ta'limda STEAM integratsiyasi: tajribalar va innovatsion yondashuvlar .....	887
<i>Bozorov Nurbek Alisher o'g'li, Muxtarova Lobar Abdimannabovna</i>	
Ona tili darslarida o'qish savodxonligini oshirishda matn bilan ishlash .....	890
<i>Erdanova Zamira Olimovna</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning metodik asoslari .....	894
<i>Murotova Gulnoza Saidqulovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida fanlararo absissial va ordinal aloqadorlikni rivojlantirish .....	897
<i>Muxtarova Lobar Abdimannabovna</i>	
Tabiiy fanlarni o'rgatishda kompleks yondashuv .....	900
<i>Qodirxonova Gulnozaxon Odilxon qizi, Zokirov Furqat Mansurovich</i>	
Современные подходы к формированию содержания общего среднего образования на основе зарубежного опыта .....	902
<i>Хакимова Дилдора Машрабжоновна</i>	



# KVEST O'YINLARI ORQALI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

Djamilova Nargiza Nuritdinovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU Maktabgacha ta'lim nazariyasi  
va metodikasi kafedrasida professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Davronova Ra'no Komilovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU Maktabgacha ta'lim nazariyasi  
va metodikasi kafedrasida 1-kurs magistri

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida kvest o'yinlaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Kvest o'yinlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda bilish faolligi, mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash hamda ijtimoiy-muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, kvest o'yinlari va simulation-based learning orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Zamonaviy pedagogik paradigmalarda asosida bolalarning maktabga tayyorligi faqat akademik bilimlar bilan emas, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanish, self-regulation hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari bilan izohlanadi. Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarga tayangan holda, kvest o'yinlari maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik vosita sifatida talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** kvest o'yinlari, maktabgacha ta'lim, maktabga tayyorlash, pedagogik texnologiya, o'yinli ta'lim, kompetensiya, quest-based learning, simulation-based learning, school readiness, gamification, play-based pedagogy, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, kognitiv rivojlanish.

**Abstract:** Theoretical and practical aspects of using quest-based games in preparing preschool children for school education are analyzed. School readiness is interpreted not only as the acquisition of academic knowledge but as a comprehensive construct that includes cognitive development, socio-emotional competence, and self-regulation skills. Particular attention is given to the potential of quest-based learning and simulation-based learning in fostering children's cognitive activity, logical thinking, independence, communication skills, and problem-solving abilities. Drawing on national educational reforms of Uzbekistan and international research findings, the socio-pedagogical significance of quest games as an innovative approach in early childhood education is substantiated.

**Key words:** quest-based games, preschool education, school readiness, pedagogical technology, play-based learning, competencies, simulation-based learning, gamification, socio-emotional development, cognitive development, self-regulation.

**Аннотация:** Анализируются теоретические и практические аспекты использования квест-игр в процессе подготовки детей дошкольного возраста к школьному обучению. Обосновывается, что готовность к школе рассматривается не только как совокупность академических знаний, но и как комплекс когнитивного, социально-эмоционального развития и навыков саморегуляции. Особое внимание уделяется возможностям quest-based learning и simulation-based learning в формировании познавательной активности, логического мышления, самостоятельности, коммуникативных компетенций и способности к решению проблем. На основе национальных нормативно-правовых документов Республики Узбекистан и зарубежных исследований раскрывается социально-педагогическая значимость квест-игр как инновационного инструмента в системе дошкольного образования.

**Ключевые слова:** квест-игры, дошкольное образование, подготовка к школе, педагогические технологии, игровое обучение, компетенции, quest-based learning, simulation-based learning, school readiness, геймификация, социально-эмоциональное развитие, когнитивное развитие.

## KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birinchi va eng muhim bo'g'ini hisoblanib, bolaning intellektual, ijtimoiy-psixologik va shaxsiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyat sharoitida maktab ta'limiga puxta tayyorgarlik ko'rgan, mustaqil fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan hamda muloqot madaniyatiga ega shaxsni shakllantirish ijtimoiy-pedagogik zaruratga aylana-

moqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni, xususan, kvest o'yinlarini qo'llash dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, PF-5198-son Prezident farmoni asosida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish vazifalari belgilab berildi. Mazkur farmonda maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son<sup>1</sup> qarori bilan tasdiqlangan maktabgacha ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish belgilangan. Konsepsiyada ta'lim jarayoniga innovatsion va interfaol metodlarni tatbiq etish orqali bolalarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish zarurligi alohida qayd etilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son<sup>2</sup> Farmonida uzluksiz ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish orqali yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishi ekani ta'kidlanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son<sup>3</sup> Qonunga muvofiq, maktabgacha ta'lim bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning maktab ta'limiga tayyorgarligini ta'minlashga qaratilgan uzluksiz ta'limning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Qonunda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyili, ta'limning insonparvarlik va demokratik xarakteri mustahkamlangan bo'lib, bu jarayonda o'yin faoliyati yetakchi pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur normativ-huquqiy asoslar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, ularni maktab ta'limiga kompleks tayyorlash uchun zamonaviy, interfaol va faoliyatga asoslangan metodlarni qo'llash zarur. Kvest o'yinlari ana shunday metodlardan biri bo'lib, ular bolalarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, jamoada ishlash, muammoni hal qilish, mantiqiy tafakkur va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shu bois, "Kvest o'yinlari orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida" mavzusi bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar talablari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uzviy bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash masalasini dolzarb etmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida bolaning shaxsiy rivoji, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XXI asr pedagogikasi maktabgacha ta'limni bolalarni maktabga tayyorlash jarayoni sifatida qayta talqin etdi. An'anaviy yondashuvlarda tayyorgarlik faqat akademik ko'nikmalar bilan baholangan bo'lsa, zamonaviy konsepsiyalarda maktabga tayyorgarlik – bu bolalarning kognitiv, ijtimoiy, emotsional va o'zini boshqarish qobiliyatlarini o'z ichiga oluvchi kompleks tushuncha sifatida qaralmoqda (UNICEF, 2021; OECD, 2022). Maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat turi o'yin bo'lganligi sababli, ta'lim jarayonini o'yin texnologiyalari asosida tashkil etish yuqori samaradorlikka ega. Shu nuqtayi nazardan, kvest o'yinlari bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda innovatsion pedagogik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda kvest o'yinlarining samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Ma'lumotlar kuzatish, suhbat, so'rovnoma hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali yig'ildi. Kuzatish usuli yordamida bolalarning o'yin jarayonidagi xulq-atvori, muloqot faolligi va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari tahlil qilindi. So'rovnoma va

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>

3 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-5013007>



suhbatlar orqali tarbiyachilar hamda ota-onalarning fikrlari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, taqqoslash, umumlashtirish va statistik tahlil metodlari orqali baholandi. Natijalarni aniqlashtirishda dinamik tahlil usuli qo'llanilib, tajriba boshida va oxiridagi ko'rsatkichlar o'zaro solishtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kvest o'yinlarining pedagogik mohiyati. Kvest o'yinlari muammoli vaziyatlarga asoslangan, izlanish va sarguzasht elementlarini o'zida mujassamlashtirgan o'yin shaklidir. Ular bolalarni faol fikrlashga, topshiriqlarni ketma-ket bajarishga va umumiy maqsad sari intilishga undaydi. Pedagogik jihatdan kvest o'yinlari ta'lim jarayonini faollashtiradi, bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlaydi, bolalarning qiziqishini oshiradi hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda kvest o'yinlarining o'rni. Maktabga tayyorlash jarayoni intellektual, psixologik, ijtimoiy va jismoniy tayyorgarlik kabi komponentlarni qamrab oladi. Kvest o'yinlari ushbu tayyorgarlik turlarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish imkonini beradi. O'yin davomida bolalar mantiqiy fikrlash, nutqiy faollik, diqqat va xotirani rivojlantiruvchi topshiriqlarni bajaradilar.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'yinlar asosida tashkil etilgan o'quv faoliyati bolalarning tafakkurini, muammoli vazifalarni hal qilish, ijodkorlik va hamkorlik kabi ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vositadir. Shuni inobatga olib, kvest o'yinlari va simulation-based learning bolalarni maktab ta'limiga psixologik va ijtimoiy moslashuvini mustahkamlovchi vosita sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtai nazardan, bolalarni maktabga tayyorlikning zamonaviy talqini ko'rib chiqiladi. "School readiness" konsepsiyasi maktabgacha ta'lim jarayonida bir nechta o'lchovlarni o'z ichiga oladi:

- kognitiv rivojlanish – diqqat, ishchi xotira, mantiqiy fikrlash, muammoni hal etish (OECD, 2022);
- ijtimoiy-emotsional rivojlanish – hamkorlik, muzokaralar, empatiya, emotsiyalarni boshqarish (UNICEF, 2021);
- self-regulation – ichki motivatsiya, o'zini boshqarish, qaror qabul qilish qobiliyati (Harvard Center on the Developing Child, 2021).

Bu komponentlar birgalikda bolaning maktabga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. G'arbiy ta'lim tizimlarida (Finlyandiya, Kanada, Buyuk Britaniya) ushbu tamoyillar asosida play-based yoki inquiry-based pedagogika joriy etilgan.

Kvest o'yinlari va simulation-based learning konsepsiyasi. Kvest o'yinlari ma'lum maqsadga erishish uchun bosqichma-bosqich bajariladigan topshiriqlar tizimi bo'lib, bolalarda muammoni hal etish, kreativ fikrlash, hamkorlik va motivatsiyani uyg'otadi. Simulyatsion o'yinlar (simulation-based learning) esa real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik vazifalarni kontekstga joylashtirish orqali bolalarda murakkab ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-pedagogik ahamiyati. Kvest o'yinlari bolalar uchun ijtimoiy tayyorlik jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu pedagogik vosita bolalarda ijtimoiylashuv, hamkorlik va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish, emotsional xavfsizlikni ta'minlash va o'zini ishonch bilan ifoda etish, self-regulation hamda muammoni hal etish qobiliyatini mustahkamlash, kreativ fikrlash va qaror qabul qilishni rag'batlantirish, shuningdek, maktab muhiti talablariga psixologik moslashuvni oshirish imkonini beradi. Simulyatsion va quest-based o'yinlar bolalarni maktabga tayyorlash jarayonini motivatsiya (gamification orqali qiziqish yaratish), kognitiv faollik (muammoli vaziyatlar orqali fikrlashni rag'batlantirish), ijtimoiy rivojlanish (guruhli o'yinlar orqali hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish) hamda maktabga moslashuv (self-regulation va ijtimoiy kompetensiyalar orqali integratsiya) bosqichlarida amalga oshiradi.

O'zbekiston sharoitida o'yinlar pedagogikasi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'yinlar pedagogik vosita sifatida keng qo'llanilmoqda. Milliy ilmiy tadqiqotlarda o'yinlar bolalarning insoniy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishida muhim omil sifatida e'tirof etilgan. Jumladan, Muxtorova Z.S. va Djurayeva A.V. tadqiqotlarida o'yinlar bolalarning nutq va muloqot faoliyatini yaxshilashga xizmat qilishi ko'rsatilgan, Otajonov J. va Alimova T.F. tomonidan o'yinlar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalalari yoritilgan, Shermamatova Z.A. ishlari esa o'yinlar yordamida chet tilini o'rganishda bolalarning faol ishtirokini ta'kidlaydi. Shuningdek, UNICEF va ICDI bilan hamkorlikda joylarda play-based learning bo'yicha treninglar o'tkazilmoqda, bu maktabgacha ta'limdagi innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gamification elementlari (mission, reward, level) bolaning ichki motivatsiyasini uyg'otadi (Deterding, 2020), simulation-based ssenariylar bolalarda muammoni hal etishda tanqidiy fikrlashni mustahkamlaydi (Bell, 2020; Dawson et al., 2023), play-based pedagogika esa ijro funksiyalari va emotsional boshqaruvni rivojlantiradi (Hirsh-Pasek & Golinkoff, 2020; Whitebread et al., 2020). Ushbu yondashuvlar o'yin va ta'lim integratsiyasini ta'minlab, bolalarni kompleks tarbiyaviy-o'quv faoliyatiga jalb etadi.

AQShda Harvard Developing Child Center tadqiqotlariga ko'ra, play-based va simulation-based yondashuvlar bolalarda self-regulation, ijtimoiy munosabatlar va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Buyuk Britaniyada problem-based play va quest-based scenarios maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhim pedagogik vosita sifatida qo'llanilib, bolalarni birgalikda muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltiradi.

Finlyandiyada play-based curriculum asosida bolalar o'yin orqali ijtimoiy, emotsional va kognitiv jihatdan rivojlanadi, bu esa maktabga oson moslashuvga xizmat qiladi.

Kanada va Germaniyada esa inquiry-based learning hamda Erlebnisorientierte Pädagogik konsepsiyalari orqali bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik va muammoli vaziyatlar ustida ishlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kvest o'yinlari orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ushbu texnologiya bolalarning bilish faolligi, ijtimoiy moslashuvi va maktabga tayyorgarlik darajasini sezilarli oshirishga xizmat qiladi. Kvest o'yinlari va simulation-based learning maktabgacha ta'limda ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida qaraladi, chunki ular bolalarda self-regulation va ijro funksiyalarini rivojlantiradi, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni mustahkamlaydi, kognitiv faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi hamda maktabga psixologik moslashuvni yengillashtiradi. Shu bilan birga, O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'yinlar pedagogik vosita sifatida ma'qullanmoqda va xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llanmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim konsepsiyasi.
3. Karimova D. Maktabgacha pedagogika. – T., 2021.
4. Xodjayev B. Pedagogik texnologiyalar. – T., 2020.
5. Muxtorova Z.S., Djurayeva A.V. (2024). O'yinning nutq rivojlanishidagi roli.
6. Otajonov J., Alimova T.F. (2022). Pedagogik o'yinlar orqali mantiqiy fikrlash.
7. Shermamatova Z.A. (2023). O'yinlar orqali chet tilini o'rganish.
8. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
9. Bruner J. The Process of Education. – Harvard University Press, 1960.
10. UNICEF. (2021). School Readiness Framework.
11. OECD. (2022). Starting Strong VII: Early Childhood Education and Care.
12. Center on the Developing Child, Harvard University. (2021). Executive Function and Self-Regulation.
13. Deterding S. (2020). Gamification Theory and Practice.
14. Hamari J., et al. (2022). Effects of gamification on learning outcomes in early childhood education: A meta-analysis.
15. Hirsh-Pasek K., Golinkoff R. (2020). Becoming Brilliant.
16. Whitebread D., et al. (2020). Play and Self-Regulation in Early Childhood Education.
17. Bell S. (2020). Problem-Based Learning in Early Childhood Education.
18. Dawson V., et al. (2023). Inquiry-Led Play and STEM Foundations.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.